

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QITUVCHILARNI TARBIYAVIY ISHLARGA TAYYORLASH KOMPETENSIYALARI

Saparboeva Dilshoda Sobir qizi

Fan va texnologiyalar universiteti

“Pedagogika” kafedra mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilarini tarbiyaviy ishlarga tayyorlash, o‘quvchilar bilan ishlash mazmuni va ularning asosiy vazifalari va kompetensiyalari ilmiy pedagogik jihatdan asoslangan.

Аннотация: В данной статье научно-педагогически обоснована подготовка будущих педагогов начального образования к воспитательной работе, содержание работы с воспитанниками и их основные задачи и компетенции.

Annotation: In this article, the preparation of future primary education teachers for educational work, the content of working with students, and their main tasks and competencies are based on scientific pedagogy.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim, tarbiya, jamiyat, mezon, strategiya, tafakkur, o‘qituvchi, o‘quvchi, qobiliyat, yoshlar, qadriyat, sog‘lom turmush tarzi, millat, kuch, imkoniyat, ijtimoiy faollik, mas‘uliyat, inson, qadr, jamoa, nufuz.

Ключевые слова: Образование, воспитание, общество, критерий, стратегия, мышление, учитель, ученик, способности, молодежь, ценность, здоровый образ жизни, нация, власть, возможность, социальная активность, ответственность, личность, ценность, сообщество, влияние.

Key words: Education, upbringing, society, criterion, strategy, thinking, teacher, student, ability, youth, value, healthy lifestyle, nation, power, opportunity, social activity, responsibility, person, value, community, influence.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi intellektual jihatdan o‘quvchilarda aqliy qobiliyat, qiziquvchanlik, tasavvur, mustaqil bilim egallashga intilish, ijtimoiy jihatdan kirishimlilik, hazilni tushunish va o‘zi ham hazil qila olish, emotsional jihatdan vazminlik, ajablanish va hayratlanishga oid amaliy mashg‘ulotlar, axborot darslari, davra suhbatlari, individual suhbatlar, konsultatsiyalar, sog‘lom turmush tarzini, munozarali klublarni tashkil etish, innovatsiyalarni yaratish asosida individuallashtirilgan, yangi bilimlarni egallash

xususiyatlariga ega bo'lishi lozim. Ushbu jarayonda ta'lim sohasida yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, o'qitishda yangi metodlar, yangi tashkiliy tuzilmalarni shakllantiradi va ularning birligini ta'minlaydi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tarbiyaviy ishlarga tayyorlashda pedagogik muhitni yaratish, o'quvchilarning bilimlarini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, innovatsion faoliyatga tayyorlash mexanizmlarini optimallashtirish pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish, pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va uning samaradorligini baholash asosida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Ushbu jarayonda o'qituvchi sog'lom muhitni yarata olish, o'quvchilar bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o'z vaqtida anglash va bartaraf etish, pedagogik jarayonlarni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, tarbiya metodlarini, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash, axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish, pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish, pedagogik jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayoninig samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, o'quvchilarni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish, izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatini namoyon qilish, pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana bilish, ta'lim-tarbiya ishlari bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish, takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish, o'z ustida ishlash kasbiy mahoratini takomillashtirib borish, faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish, ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish, salbiy odatlarni bartaraf etish, o'z-o'zini namoyon etishi,

ta'lim muhiti-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish, ta'lim mazmunini yangilash ishlarini o'rganishlari muhim hisoblanadi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tarbiya jarayoniga tayyorlashda oila va mahalla hamkorligi kompetensiyasi asosida qiziqarli va doimo yangilanib turuvchi shakl, metod va vositalarini maqsad sari yo'naltirish, ular faoliyatini rejali tashkil etish hamda har tomonlama ta'sir etishda imkoniyat yaratib berish, shuningdek, davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda tarbiya izchillilik, uzviylik, ko'rgazmalilik, tadbirlarning yosh va psixologik xususiyatga mosligi, maqsadlarning mushtarakligi, o'z-o'ziga talabchanlik, shakl va metodlaridagi moslik tamoyillarga asoslangan xolda o'quvchilarni hayotga tayyorlash, sog'lom turmush tarzini namunali yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tarbiyaviy ishlarga tayyorlashda ularni o'quv faoliyatini sifatli amalga oshirishda iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish, ta'lim jarayonlarida inovatsion texnologiyalaridan foydalanishda pedagogik mahorat kompetensiyasi asosida o'quvchilarni kelgusi hayotini o'z qo'li bilan qura olishiga ishonirish, ezgu ishlarga rag'batlantirishi, eng muhimi ularni baxtli yashashga o'rgatishga doir ilg'or tajribalarni o'rganishi, hozirgi kunda dunyoda ruy berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni o'quvchilar ongi va qalbiga yetkazishi muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining axborot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, o'quvchilarning qobiliyatlari va ehtiyojlariga muvofiq ravishda unumli foydalana olish, tarbiya mavzularini tanlash va o'zgartira olish, har bir tadbir uchun mas'uliyatni his qilish, muammoli vaziyatlar, vazifalarning murakkabligiga e'tibor qaratishda o'quvchilarning bilishiga oid qobiliyatini inobatga olish zarur. Chunki o'quvchilar dars jarayonida shunchaki ma'lumotni o'zlashtirmaydilar, balki yangi bilim olishga kirishadilar. Ushbu jarayonda o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari, shaxsi maqsadga muvofiq shakllantirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon uchun xizmat qiladigan zarur

xulq-odoblar yuzaga keladi. Ushbu jarayonda o‘quvchilar hayotida tarbiyaviy ta’sirlar shaxsiy tajribalar va ehtiyojlar namoyon bo‘ladi. O‘quvchi faoliyatini tashkil etish, ichki kechinmalarini anglash, bahslashish, his qilish, aniq maqsad bilan ishlashda o‘qituvchining samimiy munosabati ijobiy samara beradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tarbiyaviy ishlarga tayyorlashda millatlararo totuvlik kompetensiyasini amalga oshirish jarayonda millatlarning qadriyatlarini asrab-avaylash, turli millatlarning ajdodlari yaratgan milliy urf-odatlarini jamiyatda keng amalga oshirish, milliy ananalarni rivojlantirish asosida har bir o‘quvchida insoniylik, millatparvarlik, mehnatsevarlik singari umuminsoniy madaniyatni shakllantiradi. Har bir millat vakillarining bir-birlarini hurmat qilishi, badiiy adabiyot va san’atga qiziqishlarini kuchaytirish ishlarini olib boradi. Yangi O‘zbekistonda barcha millatlarning jipsiligini taminlash, moddiy va ma’naviy hayotlarini farovon qilish masalalariga oid tadbirlar o‘tkazish, millat va elatlarning tarixini aks ettiruvchi san’at asarlari haqida o‘quvchilarga ma’lumot berishga e’tibor qaratish, O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlarning bir oila sifatida totuv, inoq yashayotganligi haqida olib borilayotgan tadbirlar va ularga homiylik qiluvchi tashkilotlarning faoliyati haqidagi ishlar o‘quvchilarning bilimlarini rivojlantirish va ma’naviy-axloqiy ta’sir etish, o‘z-o‘zini xis qilishida ijobiy samara beradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tarbiyaviy ishlarga tayyorlashda o‘zbek xalqi hayotidan o‘rin olgan va jamiyat tomonidan mustahkamlangan odob-axloq kompetensiyasiga amal qilish, jamiyat qonun-qoidalarini axloqiy normalarini o‘rganishda, tarbiyaviy ishlarni amaliyotga tatbiq etishda “Texnologiya”, “Tarbiya” mashg‘ulotlarida axloqiy muhit va tarbiyaviy ta’sir etish sinf jamoasida o‘tadigan yig‘ilishlar, tarbiyaviy soatlar, ma’ruzalar, suhbatlar kabilarda o‘quvchilarning doimiy ishtirokini ta’minlash va ularning bilimlarini shakllantirishda individual xususiyatlarini to‘liq va aniq hisobga olish, ularni tarbiyalashda mas’uliyatni yuqori darajada amalga oshirish, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, yig‘ilish qarorlarini doimiy bajarish, jamoat ishlarida ishtirok etish va nazorat qilib borish

kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tarbiyaviy ishlarga tayyorlashda o'quvchilar jamoasini tashkil etish kompetensiyasini shakllantirish muhim hisoblanadi. Bunda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining pedagogik-psixologik tayyorgarligining yuqori darajada bo'lishi bilan birga tarbiyaviy faoliyatni amalga oshirishda ijobiy natijani beradigan shakl va metodlarni tanlashi muhimdir. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi o'quvchilar sinf jamoasining rivojlanishi va mustahkamlashda yordam berish, ularni bir-biriga yaqinlashtirish, do'stlikni mustahkamlash, psixologik va pedagogik savodxonligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi tarbiya jarayonining optimal shart-sharoitlarini yaratish, o'quvchi maqsadini tushunish va uning mas'uliyatni yanada yuqori darajaga ko'tarishda ularda munosabat, tashabbuskorlik, tashkilotchilik xususiyatlariga ega bo'lishi muhim o'rin tutadi. Bunda ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirishda jamoa a'zolarining ishtirok etishlari muhim hisoblanadi:

1. Buning uchun: jamoa hamkorligida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish rejasini tuzish.

2. O'quvchilarning yashash joylarida sport maydonchalari va komplekslari, klublar, axborot resurs markazlari, o'yin maydonchalari, yozgi teatrlar, texnik stansiyalari faoliyatini tashkil qilish.

3. O'quvchilarning qizikishlariga oid to'garaklar tashkil etish, ular bilan birgalikda ekskursiyalar, quvnoqlar va zukkolar kabi musobaqalar salomatlik, bilimlar kuni kabi bayram tadbirlarini o'tkazish asosida jamoani mustahkamlash.

4. Boshlang'ich ta'lim jarayonida jamoa faoliyatida turli tadbirlarni o'tkazish, ularni ijtimoiy aloqalarini kengaytirish va boyitish bilan birga ularda fuqarolik yetukligini shakllantirish.

5. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi jamoa faoliyatida o'z ma'ruzalari

bilan ilmiy-amaliy konferensiyalarda ishtirok etishi, o'z bilimlarini keng targ'ibot qilishi, ustoz-shogirdlar davrasida pedagogika asoslarini o'rganishi muhim hisoblanadi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining jamoa muammolarini chuqur tushunishlari ta'lim samaradorligini oshirishni ta'minlaydi. Ushbu kompetensiyalarni amalga oshirishda o'qituvchining fikrlash doirasi, ekstremal holatlarda ishlay olish layoqati, nohush holatlarga qarshi tura olish, aloqa, hamkorlik, ixtiloflarga bardoshlilik, mehnatdan qoniqish, o'z-o'zini rivojlantirish, faoliyatini loyihalashtirish, o'zini o'zgartira olish kabi kompetentlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ushbu jarayonlarda o'qituvchining kasbiy va psixologik sifatlarga ega bo'lishi tarbiya ishlarini tashkiliy, ijtimoiy- siyosiy, ma'naviy axloqiy, iqtisodiy jihatdan tahlil etish, nazorat qilish va muayyan mazmundagi xulosalarni tayyorlash kabilar mas'uliyatli bo'lishni talab etadi. Ushbu jarayonda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi:

-mamlakatimiz va xorijiy davlatlar tajribalari asosida ularning o'sishi va ishchanlik malakasini yuksalishini nazorat kilish sifatlarini ifoda etuvchi model va uning me'yorlari, kategoriyalarini o'rganish;

-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda milliy urf-odat va udumlaridan samarali foydalanish va ularga nisbatan o'z munosabatini bildirish;

-tarbiya ishlarining asoschisi sifatida o'zining individual xususiyatlarini ya'ni kasbiy bilim, malaka, ko'nikma va qobiliyati, xulq-atvor madaniyati, nutqi, muomalasi, kiyinishi, ma'naviy axloqiy sifatlari bilan na'muna bo'lishi, uning o'ta nozik, noyob xususiyat va alomatlar, insoniy fazilatlarga, yangi fikrlarga ega bo'lishi, ta'sirchanligi, qat'iyat va irodasi bilan o'quvchilarni boshqarishi, uni turli qaltis qadamlardan asrab, to'g'ri yo'lga boshlashga har qanday sharoitda ham ularning ruhini ko'tarish, lo'nda qilib aytganda, har qaysi ta'lim oluvchining yuragiga yetib borishga, uning kuchiga kuch, ishonchiga ishonch, g'ayratiga g'ayrat qo'shishga qodir bo'lishi shart.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarni ezgu niyatlar bilan o'ziga

ergashtira olgan o'qituvchi hamisha ularning hurmat e'tiborida bo'ladi. O'quvchilarni bir-birlariga suyanib, tayanib, bir-birlarini tushunib, muammolarini birgalashib bartaraf etishga da'vat qilish o'qituvchining noyob fazilati hisoblanadi. O'qituvchining katta dushmani- kibru havo, o'ziga bino qo'yish, o'ziga ortiqcha baho berishdir. Bunday o'qituvchi uzoqqa borolmaydi. O'qituvchi o'quvchilar o'rtasida ma'naviy ruhiy, siësiy-axloqiy muhitni yaratadi. Demak, tarbiyaviy ishlar jarayonida o'qituvchining kayfiyati o'quvchilarga bo'lgan munosabati muhim o'rin tutadi. Albatta, o'quvchilar har xil. Ularning orasida gap uqmaydigan, ba'zan esa ro'y rost e'tiroz bildiradiganlari ham bo'ladi. O'qituvchi degani barcha fazilatlari bilan bir qatorda nuqsonlari bilan ham yaxlitligicha ustozdir. Haqiqiy o'qituvchi ana shu yaxlitlikni anglab, aql bilan his etib, o'quvchilarning boshini qovushtirib, o'ziga ergashtira olishi bilan ular oldida munosib hurmat va izzat qozonadi. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o'qituvchining ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan holatlari, uning mas'uliyati, axloqiy tamoyil va qoidalariga ongli ravishda rioya etish irodasi o'quvchi hayotini butunlay o'zgartirish, tahlil etish, anglab yetish va himoya qilish, nafaqat o'z xatti-harakatlari, ishlari va uning natijasi uchungina emas, balki o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarish samaradorligini oshiradi.

Bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tarbiyaviy ishlarga tayyorlashda ularni mamlakat ijtimoiy- siyosiy hayotining barqarorligini ta'minlash, ma'naviy-axloqiy xususiyatlarining ustuvorligini takomillashtirish, o'qituvchining tafakkurida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, sinf jamoasini jipsligi, jismoniy sog'lomligi, demokratik hamda umummilliy taraqqiyoti tahdidlariga qarshi tura olish kabilarni amalga oshirish muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. "O'zbekiston" Toshkent-2022 yil
2. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni (Qonun hujjatlari Ma'lumotlari

milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi PF-3907-son “Yoshlarni manaviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz>

4. Kenjayev Sh.X. Bolajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarga axloqiy tarbiya berishga tayyorlash tizimini takomillashtirish PhD avtoref Chirchiq 2022y 49 b